

CK

408494



Mushtariybegim ISROILOVA

**DUO QILING,  
BOBOJON**

**Mushtariybegim ISROILOVA**

**DUO QILING,  
BOBOJON**

She'rlar

«Farg'ona» nashriyoti,  
2016-yil

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(5O')7

I-82

**ISROILOVA, Mushtariybegim**

**I-82 DUO QILING, BOBOJON:** she'rlar/ adabiy-badiiy nashr/M.Isroilova. – Farg'ona: «Farg'ona» nashriyoti, 2016. – 32 bet.

She'riyat olamiga ilk qadamlarini qo'yayotgan yosh ijodkor Mushtariybegim Isroilovanning she'rlarida bolalarcha beg'uborlik, soddalik ko'zga tashlanadi. Shu bilan birga, dunyoga tiyrak nigoh ila ko'z tashlayotgan qiziquvchan va intiluvchan she'r ixlosmandining yurak so'zlari o'quvchida yorqin taassurot qoldiradi.

Ushbu she'riy to'plam maktabiyoshidagi o'quvchilarga, shuningdek, barcha she'riyat muxlislariga mo'ljallangan.

UO'K: 821.512.133-1

KBK: 84(5O')7

ISBN: 978-9943-980-69-3

©M.Isroilova – 2016.

## MUSHTARIYBEGIM MUSHTARIYLARI

*So'zboshi o'rnida*

Kingadir nimadir aytish ehtiyojini qondirish, ko'nglida kechayotgan tuyg'ularni izhor qilish uchun insonga til berilgan. Bu til qanday so'z va jumalarni ifodalashi, qay usulda bayon qilishi, albatta, uning qayerda, kimlar orasida voyaga yetishiga va iqtidoriga bog'liq.

O'zbekiston gavhari sanalmish go'zal Farg'ona shahrida tug'ilib voyaga yetayotgan Mushtariybegim Isroilovanning jaji qalbida uyg'onayotgan shu muqaddas Vatan farzandi ekanligidan faxrlanish, unga shukrona keltirish, oilasi, mahallasida, qishloq va shaharlarda bo'layotgan buyuk o'zgarishlarni madh etish tuyg'usi unga tinchlik bermaydi – qo'lga qalam olib, nazmiy satrlar bitishga da'vat etadi. Aynan mana shu ezgu da'vat uni maktab quchog'idagi, shahar, viloyat miqyosidagi adabiy gurung va to'garaklarga, vaqtli matbuot tahririyatlariga yetaklaydi. Men uning tortinibgina, ammo ichki ishonch bilan o'qigan she'rlarini ana shu to'garaklarda kuzatganman. Yildan-yilga ulg'ayib, qat'iylashib borayotgan bu ishonch uning "Duo qiling, bobojon" deb nomlangan ilk kitobchasini yuzaga keltiribdi.

Mushtariy – arabcha "xaridor" degani. Mushtariybegim – ezgu so'z xaridori. U eng go'zal, pokiza so'zlarni hayotning, odamlarning o'zidan olib, o'zlariga hadya etishdek xayrli ishga astoydil bel bog'lagan. Adabiyot maydoniga o'ziga xos ishonch, qat'iyat bilan kirib kelayotgan jur'atli qizimizning ko'ngil mulki xaridorlari hali juda ko'p bo'ladi. Nasib qilsa, ular orasida siz-u biz ham bo'lamiz, muhtaram kitobxon!

**Siddiq MO'MIN, FarDU professori,  
O'zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a'zosi.**

## BOYCHECHAK TERDIM

Qir-adirlardan  
Boychechak terib,  
Buvijonimga  
Berdim keltirib.

Ko'klam nafasi  
Dimoqqa urdi,  
Buvim chechakni  
Ko'zlarga surdi.

So'ng yaratganga  
Aytib shukrona,  
Duo qildi: «Tinch  
Bo'lsin zamon!»

Meni quchdilar  
Ming bor aylanib,  
Qilgan ishimdan  
Ketdim quvonib.



## **AZIZ ONA**

Oyijonim – mehribon,  
Tongda yopib issiq non,  
Bizlarga mehr bilan  
Tuzaydilar dasturxon.

Qo‘yarlarni mayiz, yong‘oq,  
Piyolalarda qaymoq.  
Yumshoqqina holvalar  
Og‘zingda erir shundoq.

Aylanib o‘zimizdan  
O‘pib yuz-ko‘zimizdan,  
Maktab ketsak, termulib  
Qoladi izimizdan.

Bolaligimiz tutib  
Bir-birimizni turtib,  
Kechiksak, turadilar  
Eshik oldida kutib.

Bizni ko‘rib quvona  
Aytar doim shukrona.  
Baxtimizga doimo  
Bor bo‘ling, aziz Ona.



## MAKTAB QUCHOG'I

O'quvchilarga to'ldi  
Maktab quchog'i bugun,  
Yana bir yosh ulg'aygan  
Sinfdoşlar shod, mamnun.

O'sha sodda, kamtarin  
Ustoz olar qarshilab,  
Yuzda iliq tabassum,  
Cheksiz mehr-la siylab.

Dars boshlanar sinfda,  
Tiniqlashar tuyg'ular.  
Toza, murg'ak qalblarda  
Kurtaklaydi orzular.

## O'ZBEKISTONIM

Bag'rikenglik senga xos,  
Yosh-qari topar e'zoz.  
Dunyo bo'ylab quloch yoz,  
Aziz O'zbekistonim.

Bahosi yo'q gavharim,  
Humo qush, kabutarim.  
Uzilmasin baxt toring  
Hargiz, O'zbekistonim.

Jondan sevgan qizingman,  
Nur porlagan yuzingman,  
Mushtariy yulduzingman,  
Buyuk O'zbekistonim.

## **O'ZBEK QIZIMAN**

Men o'zbekning qiziman –  
O'ziga bekning qizi.  
Mardu maydon, bir so'zli,  
Qomati tikning qizi.

Ajdodlarim faxrimdir,  
Iftixor-la yashayman.  
Istiqlol ochib bergan  
Yo'ldan qadam tashlayman.

Yurtlar ko'p, diyorlar ko'p,  
Vatan bordir har kimda.  
Men uchun O'zbekiston –  
Bitta ona zaminda.

## **DUO QILING, BOBOJON**

– Duo qiling, bobojon,  
Ketmoqdaman o'qishga.  
Dadam derlar: – Otajon,  
Men ham shoshyapman ishga.

Bobom der: – Bolalarim,  
Yo'llaringiz bo'lsin oq.  
Yaxshi-yomon kunlarda  
Doim qo'llasin Oллоh.

Bobomning duosidan  
Qalblar nurga to'ladi.  
Barcha ishimiz yaxshi,  
Barokatli bo'ladi.



## IKKI BUYUK ZOT

Maktab – muqaddas maskan,  
Kitob do‘stdir qadrdon.  
Ustoz – onalar kabi  
Mo‘tabar, aziz inson.

Bir bolaning qalbida  
Orzular ochsa kurtak,  
Uning bog‘boni erur  
Ona va ustoz, beshak.

Hayot bo‘stoni uzra  
Ikkisi – suv va ziyo.  
Onajon va ustozlar,  
Omon bo‘ling doimo.



## **TONG**

Tongda hayot boshlanar,  
Kattalar ishga shoshar.  
O'quvchilar maktabga –  
Dilda orzular toshar.

Kichkintoylar bog'chaga  
Chopqillab oshiqadi.  
Shirinso'z «bog'cha opa»  
Ularga xo'p yoqadi.

Nurga to'ladi zamin,  
Qanot qoqar qushchalar.  
Erta tongda turganning  
Orzulari ushalar...



## **SHIRIN KALOM**

«Assalomu alaykum» –  
«Vaalaykum assalom».  
Yuraklarni eritar  
Shu ikki shirin kalom.

Keksa-yu yosh tilida  
Aytilishi xush, oson.  
Shu nurli kalom kirgan  
Xonadonlar charog'on.

Yo'qlaylik bir-birimiz,  
Ko'ngillar olsin orom.  
«Assalomu alaykum» –  
«Vaalaykum assalom»!



## **DO'STIM – KITOB**

Do'stim, yo'ldoshim – kitob,  
Yaqin sirdoshim – kitob.  
Yo'llarim yoritguvchi  
Nurli quyoshim – kitob.

Uni avaylab-saqlab,  
O'qir bo'lsam varaqlab,  
Boyir fikr xazinam,  
Ketar ko'zim charaqlab.

Ko'maklashar beminnat,  
Har qati pand-nasihat.  
Barchamizga do'st bo'lar,  
Uni sevol sak faqat.



## AZIZ DIYOR

Muqaddas uyimizsan,  
Yallamiz, kuyimizsan.  
Sen-la baxtlimiz mudom,  
O'zing – xush o'yimizsan,  
O'zbekiston, onajon,  
Dilda mehring bir jahon.

Gul, chaman, gulzorlaring,  
Qishu yoz, bahorlaring...  
Tengi yo'qdir dunyoda –  
Musaffo osmonlaring,  
O'zbekiston, onajon,  
Mangu bo'lsin hur zamon.

Purviqordir tog'lar ham,  
Sharbat to'la bog'lar ham.  
Tinchlik qo'shig'in kuylar  
Bulbullaru zog'lar ham.  
O'zbekiston, onajon,  
O'zing – tabarruk makon.



## FARG'ONAM

Ona shahrim, Farg'onam,  
Sen beshigim, sen – allam.  
O'zbekistonim – chaman,  
Sen undagi gul, lolam.

Har o'tgan kuning qutlug',  
Kelajaging soz, yorug'.  
Oqshomlaring osuda,  
Shundan elning ko'ngli to'q.

Husning quyoshday kulsin,  
Iqboling oydek to'lsin,  
Eng buyuk in'om – hurlik  
Senga muborak bo'lsin.



## **KITOB DO'KONIDA**

Opam bilan aylanib,  
Kirdik kitob do'konga.  
Ko'zlarim yashnab ketdi  
Kirgandayin bo'stonga.

Ikki tomon kitoblar  
Terilgan javon edi,  
Tinmay o'qidim, ajab,  
Tilim ham ravon edi.

Kitob varaqlab, vaqtning  
O'tganin bilmay qoldik.  
Qaytar chog' qiziqarli  
Kitoblar sotib oldik.



## **YER CHOPDIK**

Erta salqinda turib,  
Dadam bilan yer chopdim.  
Bardam sezib o'zimni,  
Katta g'ayrat, kuch topdim.

Marzalar tayyor bo'ldi,  
Dadam urug' sohdilar.  
So'ngra ko'cha ariqdan  
Hovliga suv ochdilar.

Onam issiq non yopib,  
Qo'ydilar bizga qaymoq,  
Mazza qilib choy ichdik,  
Tarqab ketdi bor charchoq.





## HIKMAT

Hovlidagi jo'mrakdan  
Suv oqardi sharillab,  
Jajjigina Sarvarbek  
Qo'ydi shu zahot burab.

So'ng kattaroq ochgancha  
Qop-qora, sho'x ko'zlarin,  
Onasiga donalab,  
Tushuntirdi so'zlarin:

– Bobom der: «Go'zal – qilmoq  
Har ishni vijdondandir».  
Suvni isrof qilmaslik  
Aqldan, iymondandir.



## «QO'SHIQCHI BO'LAMAN»

Salohiddin – sho'x bola,  
Ammo tillari burro.  
Juda ko'p she'rlar bilar,  
Kimdir o'rgatgan go'yo.

Oynai jahonda gar  
Qo'shiq aytib chiqsa kim,  
Darrov yodlab oladi  
Kichkina Salohiddin.

Ukajonim der: «Qo'shiq  
Aytsam, shavqqa to'laman,  
El suygan hofizlardek  
Zo'r qo'shiqchi bo'laman».



## BAHS

Bahslashib qoldi bir kun  
Kitob, qog'ozu qalam...  
Kitob o'zidan mamnun  
Maqtanib ketdi biram:

– Qozonganman g'alaba  
Barcha ishning yo'lida,  
Men doimo o'quvchi,  
Talabaning qo'lida.

Qalam aytar gerdayib:  
– Men bilan yozadilar,  
Men bo'lmasam, unutib,  
Aqldan ozadilar.

Qog'oz dedi iymanib:  
– Mensiz qalam netadi?  
Men bor uchun kitob ham  
Qo'ldan qo'lga o'tadi.

Keling, bahsni qo'yaylik,  
Xulosa shuki, do'stlar –  
Barchamiz bir bo'laylik,  
Bizda aks etsin so'zlar!



## MUSOBAQA

Sinf o'g'il, qizlari  
Musobaqa o'ynashdi,  
Yugurishda kim chaqqon –  
O'zlarini sinashdi.

Chiziqqa saf tortdilar,  
Qizidi musobaqa.  
Qarsak, qiy-chuv boshlandi,  
Gap kirmaydi quloqqa.

Ustozlar ham qo'shildi  
Qarsak chalib olqishga.  
Ur-re! Sinf qizlari  
Yetib keldi finishga!

O'sha kuni maktabda  
Bayram bo'ldi chinakam.  
Ne baxt, hissam bor edi  
Bu yutuqda mening ham.



## GULZOR

Gul ekib, gulzor qildik  
Bahorda hovlimizni.  
Ekdik jambil-u rayhon,  
Gulbeor-u yalpizni.

Tugmachagul, gulxayri,  
Tog'lar go'zali – lola...  
Atirgullar lab ochdi  
Undan andoza ola.

Yo'l chetida gulsafsar  
Der: «Bag'ringga bos meni».  
Oshko'kilar sepildi,  
Unutmadik o'smani.

Mo'jazgina hovlimiz  
Bir go'zal chaman bo'ldi.  
Kapalaklarga maskan,  
Beqiyos vatan bo'ldi.



## **DARMONDORI**

Karam, sabzi, qizilcha  
Darmondorilarga boy.  
Aytmay oshko'kilarni,  
Biladirsiz, hoynahoy.

Olma, olcha, olxo'ri,  
Nari yurmang bulardan.  
Ishtahangiz kamaysa,  
Bir to'yib yeng ulardan.

Sog'ligingiz uchun do'st –  
Iching sut-u qatiqni.  
Topolmaysiz hech qachon  
Bulardan ham ortiqni.

## **KO'RPACHALAR SOLAMAN**

Bobojonim kelsalar,  
Ko'rpachalar solaman.  
Qo'llarida ne bo'lsa,  
Darrov borib olaman.

Bobom bundan shod bo'lib  
Deydilar: «Balli, qizim».  
Xursand bo'lib ketaman  
Qilgan ishimdan o'zim...

## BALXI TUT

Quloch yetmas balxi tut  
Pishib ketdi shunchalar,  
Shoxlaridan arimas  
Mayna, chumchuq – qushchalar.

Mahallaning bolasi  
Erta-yu kech tagida.  
Balxi tut to'kiladi –  
Mevasi ko'p bargidan.

Biz ham yoyib etakni  
Tutdan qoqdik azonda.  
Onam shinni pishirdi  
Katta o'choq-qozonda.

Shinni juda shirindir,  
Mazza qilib xo'p yedik.  
Sahar chog' balxi tutga  
Hammamiz «rahmat» dedik.



## **QISHLOQ ZAVQI**

Bobom qishloqda yashar,  
Hovlilari keng, katta.  
Yozgi ta'tilga chiqsam,  
Borajakman albatta.

Bog'lari bor serhosil,  
Olma, o'riklar pishar.  
Uzumning zo'r navlari  
Shu hovlida yetishar.

Sigir, buzoq, qo'y, echki...  
Qaynaydi sut bulog'i.  
Bedana, to'ti, kaklik –  
Bobomning ovunchog'i.

Qishloq hayoti zavqli,  
Loqaydlikni tashlayman,  
Mehnat qilib yoz bo'yi  
Men shu yerda yashayman.





## O'SMA

Bahorda yerga onam  
O'sma urug' sepdilar.  
– Bu bizga momolardan  
Qolgan odat, – dedilar.

– Qayrilma qoshlaringga  
O'sma qo'ygin shavq bilan,  
O'rtoqlaring qarashar  
Havas bilan, zavq bilan.

Keyin shu o'smalardan  
Uzib bergin ularga.  
Bolajonim, yetaylik  
Yana shunday kunlarga...

Onam ekkan o'smalar  
Mahallani kezadi.  
Qancha kelin, qizlarning  
Qoshlarini bezaydi.



## NOVVOYXONA

Mahallamiz boshida  
Mo'jaz novvoyxona bor.  
Quyosh yoyilmay turib,  
Nonga kelimiz qator.

Ishchan novvoy akalar –  
Juda quvnoq, shirinso'z,  
Kichiklarni erkalab  
Qisib qo'yadilar ko'z.

Issiq nonning xush bo'yi  
Mahallani tutadi.  
Tandirdan uzilishin  
Yosh-u qari kutadi.

Har tong novvoyxonada  
Shundayin hol bo'ladi,  
Tinchlig-u to'kinlikdan  
Dillar nurga to'ladi.



## BESHIKKA BELADILAR

Hovlida bir to‘p bola  
Uchar edik arg‘imchoq.  
Qo‘shni xola bizlarni  
Chaqirib qoldi shu choq.

Kirdik, kelinchak opa  
Qarshi oldi shod, quvnoq –  
O‘n kun oldin laylaklar  
Keltiribdi chaqaloq!

Beshik olib kelibdi  
Qishloqdan onajoni,  
Kulcha-yu shirinlikka  
To‘ldirib dasturxonni.

Mehmon qilib bizlarni,  
Omonlik tiladilar,  
So‘ng momolar go‘dakni  
Beshikka beladilar.



## **SUMALAK PISHIRAYLIK**

Buvijonim, buvijon,  
Pishiraylik sumalak.  
Charchab qolmaysiz aslo,  
Hammamiz yordam bersak.

O'tin yorib beradi  
Toshpo'lat bilan Nortoy.  
Guli, Asal, Xadicha  
Tozalab berar bug'doy.

Unib chiqsa maysalar,  
Asta yanchib olamiz.  
Sharbatin siqib, suzib,  
Doshqozonga solamiz.

Qaynatamiz, kovlaymiz  
Uxlamasdan tonggacha.  
Siz pishirgan sumalak,  
Buvijonim, boshqacha.

Juda xushbo'y, mazali,  
Yeb to'ymaymiz hech qachon.  
Ko'klam keldi, sumalak  
Pishiraylik, buvijon!



## BOBOJONIM

Bobom yuzlari oftob,  
Duolari mustajob.  
Ma'no to'la gaplari –  
Go'yo hikmatli kitob.

Yaxshilikni och, derlar,  
Yomonlikdan qoch, derlar.  
«Bolaginam, ezgulik  
Urug'ini soch», – derlar.

– Yurgin hasaddan yiroq,  
Mard bo'lgin, bo'lma qo'rqqoq.  
G'ofil bo'lma, vijdoning  
Hamisha bo'lsin uyg'oq.

Yurtga sodiq bo'l, deydi,  
Har nedan berar saboq.  
Bobomning o'gitalari  
Hayot yo'limda mayoq.



## UKAM SARVARBEK

Jajji ukam Sarvarbek  
Tek turmaydi, juda sho‘x.  
Dikir-dikir sakraydi,  
O‘yini ko‘p, tinim yo‘q.

Quchoq ochsam men kulib,  
Kelar shu on yugurib.  
Qalam, daftar bermasam,  
Yig‘laydi labin burib.

Uni erkalar onam,  
Gaplari shirin biram.  
Juda-juda yarashar  
Yig‘lasa ham, kulsa ham.



## QALDIRG'UCH

Uyimiz ayvoniga  
Qaldirg'ochlar in soldi.  
Ko'p o'tmay, polaponlar  
«Chug'ur-chug'ur»lab qoldi.

Ota-ona qaldirg'och  
Ovqat tashiydi tinmay.  
Polaponlar chug'urlar  
Aslo to'yganin bilmay.

Tinchlik bermay yoz bo'yi  
Pashsha, chivin, qurtlarga,  
Kuzda uchib ketdilar  
Olis issiq yurtlarga.

Har yili bo'lar takror  
Bu qushlarning tashrifi.  
Go'yo qaldirg'och kuyi –  
Tinchligimiz ta'rifi.



## **DIYORBEKNING KOPTOGI**

Diyorbekning koptogi  
Birdan yo'qolib qoldi.  
«Topib beringlar», deya  
Injiqlanib, dod soldi.

Hamma axtarib ketdi  
Bolakayning koptogin.  
Qaradilar yerto'la,  
O'choq, tandirning tagin.

Topa olmay, supaga  
O'tirib ham oldilar.  
Osmonga uchdimi, deb  
Ajablanib qoldilar.

Biri kinoya bilan  
Dedi cho'zib bo'ynini:  
– Qaramoq qoldi xolos  
Olaparning uyini...

Qidiruv davom etdi –  
Olapar dong qotardi.  
Ajab, koptok kuchukning  
Uychasida yotardi!





2440e

*Adabiy-badiiy nashr*

**Mushtariybegim Isroilova**

**DUO QILING, BOBOJON**

(She'rlar)

*Muharrir:*

Hayotjon Boyboboyev

*Tex. muharrir:*

Nazirjon Hoshimov

*Dizayner:*

Sotvoldi Hasanov

Nashriyot litsenziyasi: A.I.N<sup>o</sup> 162. 2009-yil 14-avgust.  
Terishga berildi: 11.04.2016-y. Bosishga ruxsat etildi:  
31.05.2016-y. Bichimi: 84x108<sub>1/32</sub> Nashriyot bosma tabog'i:  
1,0. Shartli bosma tabog'i: 1,25. Journal garniturası. Ofset  
usulida bosildi. Adadi: 1000 dona. Buyurtma №: 178.  
Bahosi kelishilgan narxda.

«FARG'ONA» nashriyoti.

150114. Farg'ona shahri, Sohibqiron Temur ko'chasi,  
28-uy.

«PRINT LINE GROUP» XK bosmaxonasi.

100097. Toshkent shahri, Bunyodkor shohko'chasi, 44-uy.



*Mushtariybegim ISROILOVA  
2002-yilda Farg'ona shahrida  
tug'ilgan. Shahardagi 23-  
maktabda ta'lim oladi.  
Yo'ldosh Sulaymon nomidagi  
yosh ijodkorlar to'garagi a'zosi.  
She'rlari matbuotda e'lon  
qilingan.*

**FARG'ONA**  
nashriyoti

ISBN 978-9943-980-69-3



9 789943 980693